



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



RUHIY HOLAT BIRLIKLARINING SEMANTIK KO‘PQATLAMLILIGI VA INGLIZCHAGA TARJIMADA TIKLANISH STRATEGIYALARI

SEMANTIC MULTILAYEREDNESS OF PSYCHO-EMOTIONAL UNITS AND RECONSTRUCTION STRATEGIES IN TRANSLATION INTO ENGLISH

Axmedova Niluzar Akmal qizi

Alisher Navoiydagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: niluzaraxmedova4@gmail.com

ORCID: 0009-0006-5225-3888

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./MRQC8710](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./MRQC8710)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek badiiy matnlarida shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi leksik hamda frazeologik birliklarning ingliz tiliga tarjima qilinishida ekvivalentlik va adekvatlik muammolari yoritiladi. Tadqiqot markazida ruhiy holat birliklarining semantik-ko‘pqatlamliligi (denotativ, konnotativ, stilistik, pragmatik hamda madaniy kod) turib, tarjimonning vazifasi faqat lug‘aviy moslikni topish emas, balki aslyatdagi emotsional-ekspressiv fonni qayta yaratish ekani asoslanadi. Material sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining Mark E. Reese tarjimasi (“Bygone Days”) hamda Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarining Christopher Fort tarjimasi (“Night and Day”)dan olingan namunalarga tayanildi. Tahlilda ruhiy holat birliklari to‘rt turga: (1) bevosita his-tuyg‘uni nomlovchi leksemalar; (2) kontekst orqali yuzaga chiqadigan bilvosita holat birliklari; (3) somatik-psixologik metaforalar (“ko‘ngil/yurak” markazli obrazlar); (4) intonatsion-sintaktik vositalar orqali kuchaytiriladigan taranglik ko‘rsatkichlariga ajratildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjimada ruhiy holat birliklari ko‘pincha modulyatsiya, parafraz, ekspressiv kuchaytirish, kompensatsiya va funksional ekvivalent orqali adekvat tiklanadi; so‘zma-so‘z moslik esa har doim ham tabiiy qabul qilinishni ta‘minlamaydi. Maqola xulosasida ruhiy holat birliklarini tarjima qilishda “eng yaqin tabiiy ekvivalent” tamoyili uslub va ta‘sirni saqlash bilan uzviy bog‘liq ekani ta‘kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ruhiy holat, badiiy tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, konnotatsiya, somatik metafora.*

Annotation. *This article examines equivalence and adequacy issues in translating psycho-emotional units (lexical and phraseological expressions of a character’s inner state) from Uzbek literary texts into English. The study argues that such units are semantically multilayered – combining denotative meaning with*



connotation, stylistic coloring, pragmatic effect, and culture-specific codes—therefore the translator's task cannot be reduced to finding dictionary matches. Instead, the translator must reconstruct the emotional-expressive background that animates the character's “inner portrait” in the target text. The analysis is based on selected examples from Abdulla Qodiriy's O'tkan kunlar in Mark E. Reese's English translation (Bygone Days) and Cho'lpon's Kecha va kunduz in Christopher Fort's translation (Night and Day). Psycho-emotional units are classified into four groups: (1) direct emotion-naming lexemes; (2) indirect context-driven state markers; (3) somatic-psychological metaphors centered on “heart/soul” imagery; and (4) intonational-syntactic devices that intensify tension. The findings show that English translations frequently rely on modulation, paraphrase, expressive amplification, compensation, and functional equivalents to achieve adequacy, while literal correspondence often fails to produce a natural and equally impactful reading. The conclusion emphasizes that the principle of the “closest natural equivalent” is inseparable from preserving style and reader impact in the translation of psycho-emotional meanings.

Keywords: *psycho-emotional units, literary translation, equivalence, adequacy, connotation, somatic metaphor.*

Shaxsning ichki dunyosi – uning his-tuyg'ulari, kechinmalari, ruhiy zo'riqishlari, xavotiri, orzusi, iztirobi, shubha va umidlari – badiiy matn semantikasining harakatlantiruvchi markazlaridan biridir. Ruhiy holatni ifodalovchi birliklar til tizimining eng sezgir qatlamiga mansub bo'lib, ular matnning emotsional-ekspressiv fonini shakllantiradi, qabul qiluvchi tasavvurida subyektning “ichki portreti”ni jonlantiradi. Shu bois bunday birliklarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida tarjimon faqat lug'aviy ekvivalent topish bilan cheklanmaydi; u mazmun bilan bir qatorda emotsional bo'yoq, konnotatsiya, pragmatik ta'sir va madaniy kodni ham imkon qadar adekvat tarzda qayta tiklashi zarur.

Tarjimashunoslikda ma'no faqat denotativ qatlam bilan chegaralanmaydi; u konnotativ, stilistik va kontekstual ma'no unsurlarining majmuasini ham o'z ichiga oladi. Tarjima jarayoni hamisha ijodiy yondashuvni talab qiladi. I.G'ofurov va hammualliflar ta'kidlaganidek, tarjima boshdan oyoq ijodiy soha, tarjimon hammavaqt ijodkor bo'lishi kerak [G'ofurov, 2012: 127–128]. Ayniqsa, shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarda bu talab yanada kuchayadi: ko'plab ifodalar milliy-psixologik rangga ega bo'lib, bevosita tarjimada semantik yo'qotish yoki uslubiy sustlashuv ehtimolini oshiradi.

O'zbek adabiyotining ingliz tiliga tarjimalari son jihatidan nisbatan kam bo'lsa-da, muhim namunalar tarjimada paydo bo'ldi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani Mark E. Reese tarjimasida “Bygone Days: O'tkan Kunlar” nomi bilan nashr etilgan [Qodiriy, 2019: 1]. Shuningdek, Cho'lponning “Kecha va kunduz” asari Christopher Fort tomonidan “Night and Day” nomi bilan inglizchaga o'g'irilgan [Cho'lpon, 2018: 1; Fort, 2019: 1]. Har ikki asar qahramon ichki kechinmalarini nozik psixologik detallar, somatik belgilar, obrazli frazeologiya va nutqiy-intanatsion usullar orqali berishi bilan tarjimashunoslik uchun boy material yaratadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – o'zbek badiiy matnlarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarning ingliz tiliga tarjimasida uchraydigan muammolarni tizimli yoritish, ularni tasniflash hamda amaliy misollar asosida tarjima strategiyalarining ekvivalentlik va adekvatlik nuqtayi nazaridan samaradorligini ko'rsatishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) ruhiy holat birliklarini leksik-frazeologik va nutqiy vositalar bo'yicha guruhlash;
- b) tarjimada semantik yo'qotish xavfini tug'diradigan omillarni aniqlash;
- c) Reese va Fort tarjimalaridan misollar asosida funksional ekvivalent, modulyatsiya, parafraz va kompensatsiya kabi usullarni tahlil qilish;
- d) uslubiy-ta'siriy adekvatlik mezonlari asosida xulosa chiqarish.

Badiiy tarjimada “ekvivalentlik” ko'pincha mazmuniy moslik darajasi sifatida talqin qilinadi, ammo badiiy matn uchun bu tushuncha tor doirada – “so'z = so'z” qabilidagi moslik bilan cheklanmaydi. Ekvivalentlik, bir tomondan, ma'no qatlamlarining mos tushishi, ikkinchi tomondan esa, o'quvchida yuzaga keladigan estetik-emosional ta'sirning yaqinligi bilan o'lchanadi. Shu jihatdan “adekvatlik” tushunchasi badiiy matn uchun yanada kengroq mezonni beradi: aslyatdagi badiiy niyat, psixologik fon, uslubiy rang va pragmatik ta'sir tarjimada qay darajada qayta yaratilgani adekvatlikning asosiy ko'rsatkichi bo'ladi. Nida va Taber tarjima mohiyatini “qabul qiluvchi tilda eng yaqin tabiiy ekvivalentni qayta yaratish” sifatida izohlaydi: avvalo ma'no, so'ng uslub [Nida, 1969: 12]. Bu yondashuv ruhiy holat birliklari tarjimasida ayniqsa muhim, chunki emotsiya ifodalovchi birliklarda uslubiy bo'yoqning yo'qolishi ko'pincha ma'noning ham “xiralashuvi”ga olib keladi. Nevmark semantik tarjima “aslyatning aniq kontekstual ma'nosini” imkon qadar berishga intilishini ta'kidlaydi [Newmark, 1988: 39]. Bu tamoyil o'zbek matnlaridagi “ko'ngil/yurak” markazli metaforalarda yoki bilvosita psixologik signallarda tarjimonning “ma'no + ta'sir” birligini ko'zlashini asoslaydi. Mona Baker “so'z darajasida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent bo'lmasligi” holatini (non-equivalence at word level) tarjimaning tabiiy muammosi sifatida ko'rsatadi [Baker, 2018: 18].

O'zbek tilidagi ruhiy holat birliklari ko'pincha milliy tasavvur, obrazlilik va madaniy kod bilan qorishgani sababli ingliz tilida ularning tayyor “lug'aviy nusxasi” topilmasligi tabiiy. Shuning uchun tarjimon ko'pincha modulyatsiya (ma'noning yo'nalishini o'zgartirib berish), ekspressiv kuchaytirish, parafraz, kompensatsiya, izohlash (explicitation) kabi strategiyalar bilan ishlaydi.

Ruhiy holatni ifodalovchi birliklar semantik jihatdan “yadro” (bevosita nominatsiya) va “periferiya” (bilvosita tasvir, somatik belgilar, intonatsion ko'rsatkichlar)dan tashkil topadi. Apresyan leksik semantikada psixo-emotsional ma'noning yadro birliklari mavjudligini ko'rsatadi [Apresyan, 1995: 472–474]. Biroq badiiy matnda emotsiya ko'pincha yadro leksema bilan emas, aynan periferiya vositalari — tasvir, detal, metafora, ritm orqali beriladi. Demak, tarjimada ruhiy holat birliklarini tiklash – “denotatsiya”ni emas, ko'pincha “psixologik signal”ni qayta yaratish masalasidir.

Tadqiqot materiali sifatida ikki manba tanlandi:

1. Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” romanining Mark E. Reese inglizcha tarjimasi “Bygone Days” [Qodiriy, 2019: 1; Reese, 2020: 48];
2. Cho'lpon “Kecha va kunduz” romanining Christopher Fort inglizcha tarjimasi “Night and Day” [Cho'lpon, 2018: 107–119; Fort, 2019: 112–123].

Metodologiya quyidagi yondashuvlar uyg'unligida olib borildi:

- semantik-pragmatik tahlil (birlikning denotativ ma'nosi, konnotatsiyasi, kommunikativ vazifasi);
- kontekstual-komparativ tahlil (asliyat va tarjima kontekstida badiiy ta'sirning mosligi);
- tasniflash (ruhiy holat birliklarini leksik-frazeologik va nutqiy vositalar bo'yicha guruhlash);
- tarjima strategiyalarini aniqlash (funktional ekvivalent, modulyatsiya, parafraz, kompensatsiya va boshqalar).

O'zbek tilida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklar leksik va frazeologik sathlarda hamda sintaktik-intonatsion darajalarda namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada ular to'rt turga ajratildi.

1. Bevosita his-tuyg'uni nomlovchi leksemalar. Bu guruh shaxsning hissiy holatini to'g'ridan-to'g'ri nomlaydigan so'zlardan iborat: qo'rquv, hayajon, uyat, g'azab, quvonch, iztirob, afsus va b. Mazkur birliklar psixo-emotsional ma'noni bevosita bildiruvchi yadro leksema sifatida talqin qilinadi [Apresyan, 1995: 472–474]. Tarjimada bunday birliklar ko'pincha lug'aviy moslik asosida berilishi mumkin: qo'rquv — fear, uyat — shame/embarrassment, iztirob — anguish/suffering va h.k.

Biroq badiiy matnda ularning intensifikatsiyasi (daraja), stilistik bo'yoq va kontekstdagi ohang tarjimada alohida e'tibor talab qiladi.

2. Bilvosita (kontekst orqali) holatni bildiruvchi birliklar. Ruhiiy holat ko'pincha alohida “xavotir” yoki “qo'rquv” so'zi bilan nomlanmaydi, balki tasviriy holat sifatida kontekstda ochiladi: rangi oqarib ketdi, ko'ngli xira bo'ldi, yuragi orqasiga tortdi kabi birliklar shunday “bilvosita” ifoda shakliga kiradi. Bunda emotsiya nomlanmaydi, ammo uning alomatlari (fiziologik reaksiya yoki ruhiy zarba) nutqda tasvirlanadi [Nazarova, 2016: 177–178]. Tarjima jarayonida muammo shundaki, bilvosita birlikni so'zma-so'z o'girish ba'zan tabiiy chiqmaydi; tarjimon ko'pincha angl tilida mavjud ekvivalent tasvirni topishi yoki ta'sirni saqlagan holda qayta qurishi kerak bo'ladi.

3. Somatik-psixologik metaforalar (ko'ngil/yurak markazli obrazlar). O'zbek tilida “ko'ngil / yurak” markazli metaforalar ruhiy holatni berishda juda faol: ko'ngli cho'kdi, yuragi ezildi, ko'ngli joyiga tushdi kabi birliklar kechinmani obrazli tarzda “tana markazi” orqali ifodalaydi. Bu tendensiya ruhiy holatni “ichki markaz” bilan bog'lashning madaniy-semantik ko'rinishidir [Wierzbicka, 1992: 129–130]. Frazologik tizimda bunday birliklar antonimiya va sinonimiya munosabatlariga ham kiradi (ko'ngli joyiga tushdi — yuragiga g'ulg'ula tushdi). Ingliz tilida ham “heart” markazli metaforalar mavjud (heart sank, heart leapt, heavy-hearted), biroq moslik har doim ham to'liq emas. Shuning uchun tarjimon ba'zan o'xshash metaforani tanlaydi, ba'zan esa metaforani funksional ekvivalent bilan almashtiradi.

4. Intonatsion va sintaktik vositalar orqali ruhiy zo'riqishning ifodalanishi. Ruhiiy zo'riqish faqat leksika bilan emas, balki takror, pauza, uzilish, so'roq-undov, emosional ta'kid kabi sintaktik-intonatsion vositalar orqali ham kuchaytiriladi. Bu turdagi ifoda shakllari matnning emotsional-ekspressiv fonini yaratib, ruhiy holatning kommunikativ ta'sirini oshiradi [Nazarova, 2016: 179 –181]. Tarjimada bunday vositalarni saqlash ko'pincha punktuatsiya, gap qurilishi, ritm va dialog dinamikasini qayta yaratishni talab qiladi.

Ruhiiy holat birliklari tarjimasida amaliyotda quyidagi asosiy strategiyalar kuzatiladi:

1. Lug'aviy ekvivalent (direct equivalent) – leksik moslik mavjud bo'lsa, tarjima shu yo'l bilan beriladi.
2. Funksional (badiiy) ekvivalent – so'zma-so'z moslikdan ko'ra, ta'sir va vazifani saqlash ustuvor bo'ladi.
3. Modulyatsiya – birlikning ifoda yo'nalishi o'zgartirilib, kontekstda yashiringan sema ochiladi (masalan, “erinmoq”ning bevosita “lazy” emas, “pining away” kabi psixologik talqinda berilishi).

4. Parafraz / izohlash (explicitation) – asliyatda bilvosita berilgan holat tarjimada biroz ochiqroq ifodalanadi.

5. Ekspressiv kuchaytirish – ingliz tilida qo‘shimcha semantik komponent qo‘shilib, psixologik taranglik kuchaytiriladi (masalan, “quivering”).

6. Kompensatsiya – yo‘qolgan obraz yoki ohang boshqa joyda ekspressiv vosita bilan qoplanadi.

7. Sintaktik-intonatsion moslashtirish – pauza, uzilish, so‘roq-undov, takror kabi vositalar inglizcha ritmga mos holda qayta quriladi.

Bu strategiyalar badiiy tarjimaning asosiy talabi – mazmun bilan bir qatorda tasviriylik va emotsional ta’sirni qayta yaratish – bilan uzviy bog‘liqdir [Bayniyozov, 2005: 82].

1. “O‘tkan kunlar”da bilvosita ruhiy holat va tarjima modulyatsiyasi

1.1. “Ko‘rgan kabi” → “as if having a vision”

Qodiriy matnida Kumushbibi ruhiy holati ko‘pincha bevosita “xavotir” yoki “bezovtalik” so‘zi bilan nomlanmaydi; u psixologik mikro-belgilar orqali sezdiriladi. “...ko‘zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi...” tasviri qahramonning chalg‘ish, karaxtlik va ichki sezgi bilan bog‘liq holatini ochadi [Qodiriy, 2019: 13]. Reese tarjimasida bu “...fixed on one spot as if having a vision...” tarzida beriladi [Reese, 2020: 48]. Lug‘aviy jihatdan “ko‘rgan kabi” uchun “as if she saw something” mosdek ko‘rinsa-da, “having a vision” tanlovi psixologik fonni kuchaytiradi: “vision” unsuri “oddiy ko‘rish”dan ko‘ra “ichki tasavvur/ruhiy holat”ga yaqinroq semani uyg‘otadi. Bu — denotativ moslikdan ko‘ra badiiy adekvatlikni kuchaytiruvchi modulyatsiya.

1.2. “Qoshlari chimirilgan” → “arched, quivering”

Asliyatda “...nozlik, qiyiq qoshlari chimirilgan...” tasviri qahramon ichki tarangligini mimika detali orqali ko‘rsatadi [Qodiriy, 2019: 29]. Reese tarjimasida bu “...thin black brows... arched, quivering...” ko‘rinishida berilgan [Reese, 2020: 48]. Odatda “chimirildi” uchun inglizcha lug‘aviy moslik “frowned/knitted (her brows)” bo‘lishi mumkin; ammo “quivering” komponentining qo‘shilishi qosh harakatini “titroq” bilan bog‘lab, xavotir va beqarorlikni kuchliroq bildiradi. Bu holat ekspressiv kuchaytirish strategiyasiga kiradi: tarjimon bitta mimik detalga psixologik intensifikator qo‘shib, o‘quvchi tasavvurida ichki taranglikni jonlantiradi.

1.3. “Erinibmi...” kontekstidagi sustlik → “pining away”

Matnda qahramonning “...feather pillow quchog‘ida erinibmi... uyg‘oq yotqan...” holati bevosita “xafa” yoki “g‘amgin” deb nomlanmaydi; sustlik va fikran uzoqlashish orqali sezdiriladi [Qodiriy, 2019: 141]. Reese talqinida “...she seems distracted... perhaps... pining away.” shakli uchraydi [Reese, 2020: 141].

“Erinmoq”ning lugʻaviy mosligi koʻpincha “to be lazy/reluctant” boʻlsa-da, kontekstda muallif “oddiy erinchoqlik” emas, balki “ruhiy soʻnish”ni koʻzlaydi. “Pining away” esa aynan davomli ichki ezilish/sogʻinch semasini beradi. Bu yerda tarjimon kontekstual semani tiklashni maqsad qilib, modulyatsiya orqali adekvatlikka erishadi.

2. Dialog va pragmatik taʼsir: ijtimoiy bosim va ranjish

2.1. “Boqa olmayman” → “cannot support”

Oʻzbekoyimning: “Nima boʻlganda ham, men ikki kelinni bir oʻgʻlimga boqa olmayman” jumlasini norozilik va oilaviy bosimni ifodalaydi [Qodiriy, 2019: 288]. Reese: “However it turns out, I cannot support two daughters-in-law for my only son” deya beradi [Reese, 2020: 314]. “Boqmoq”ni soʻzma-soʻz “feed” deb berish mumkin, lekin “support” tanlovi gapning ijtimoiy-maishiy pragmatikasini toʻliqroq saqlaydi: bu yerda “ovqatlantirish” emas, “taʼminlash, koʻtarish” maʼnosi ustun. Demak, tarjima kommunikativ adekvatlikka yoʻnaltirilgan.

2.2. “Sizlab gapirish...” va ranjish pragmatikasi

“Zaynab! ... onangga bu qadar sizlab gapirish odating bormidi?!” mazmunida Oʻzbekoyimning ranjishi, gʻururi va ichki alam qatlamlari bor [Qodiriy, 2019: 146]. Reese tarjimasida “...you never used to call your mother ‘you’... Why have you offended me?” kabi shakl qoʻllanadi [Reese, 2020: 146]. Bu yerda “sizlab gapirish”ning milliy-pragmatik kodi (hurmat/masofa) ingliz tilida toʻliq ekvivalentga ega emas. Tarjimon “offended” kabi baholovchi feʼl bilan ranjish semasini ochadi: yaʼni madaniy tafovutdan tugʻiladigan yoʻqotish maʼlum darajada izohlash + pragmatik ekvivalent bilan qoplanadi.

3. “Kecha va kunduz”da nutqiy taranglik va somatik belgilar. Choʻlpon matnida ruhiy holat koʻpincha bevosita nomlanmaydi; u ovoz ohangi, gapirish tempi, pichirlash, tana reaksiyasi va ichki holatni sezdiruvchi tasviriy fon orqali beriladi [Choʻlpon, 2018: 119]. Fort tarjimasida ham ayni “nutqiy xarakter”ni saqlashga intilish koʻzga tashlanadi.

3.1. “xavotirli ovoz” va tezlik: “worried voices... whispered frenetically”

Keksalarning ichki bezovtaligi tarjimada “their worried voices... whispered frenetically” koʻrinishida ifodalanadi [Fort, 2019: 112]. Bu yerda emotsiya “worry” orqali anglashilsa-da, asosiy taʼsir “whispered frenetically” birikmasidan keladi: shoshqaloq pichirlash taranglikni kuchaytiradi. Oʻzbekcha kontekstda ham holat aynan gapirish usuli bilan sezdiriladi [Choʻlpon, 2018: 107–110]. Demak, tarjimon intonatsion-sintaktik fonni inglizcha tabiiy vositalar bilan qayta yaratgan.

3.2. Yengillashish semasi: “freed from years of sorrow and worry”

Zebi bilan bog‘liq epizodda ruhiy yengillik “freed from years of sorrow and worry” tarzida beriladi [Fort, 2019: 112]. Asliyatda ham uzoq davom etgan tashvishning “yengillashuvi” kontekst orqali ochiladi [Cho‘lpon, 2018: 107]. Bu yerda asosiy masala — holatning davomiyligi (“years”) va bosimning og‘irligi (“sorrow and worry”). Tarjimon buni ixcham, lekin semantik jihatdan to‘liq beradi; natijada adekvatlik kuchayadi.

3.3. “Ko‘ngli cho‘kdi / yuragi cho‘kdi”ga yaqin metafora: “Her heart sank...”

Saltanat kechinmasi tarjimada “Her heart sank at the idea of...” shaklida ifodalanadi [Fort, 2019: 122–123]. Bu inglizcha “heart sank” modeli o‘zbekchadagi ko‘ngli cho‘kdi / yuragi cho‘kdi semasiga juda yaqin turadi [Cho‘lpon, 2018: 107–111]. Demak, bu misolda somatik metafora metaforik ekvivalent orqali juda tabiiy ko‘chirilgan va psixologik portret ixcham, ammo ta’sirli chiqadi.

3.4. Qo‘rquvning fiziologik belgisi: “her heart beat uncontrollably and her knees trembled”

Zebining otasidan qo‘rqishi tarjimada “afraid” leksemasi bilan cheklanmay, “her heart beat uncontrollably and her knees trembled” orqali kuchaytiriladi [Fort, 2019: 122]. Bu badiiy usul o‘quvchiga qo‘rquvni “bilish” emas, “his qilish” imkonini beradi. Asliyatda ham qo‘rquv ko‘pincha tana reaksiyasi orqali beriladi [Cho‘lpon, 2018: 110]. Demak, tarjimada somatik belgilarni saqlash — ruhiy holatning intensivatsiyasini tiklashning samarali yo‘li.

3.5. “Ichi kuydi” semasi va konnotativ ko‘chirish: “burned”

O‘zbekcha “ichi kuydi / yuragi yonib ketdi” kabi iboralar ko‘pincha ichki taranglik, asabiy zo‘riqish, iztirob konnotatsiyasiga ega. Fort tarjimasida “His tired body burned from this perilous encounter” jumlasini uchraydi [Fort, 2019: 122; Cho‘lpon, 2018: 110]. Bu yerda “burned” oddiy fizik og‘riqni emas, ichki bosimning konnotativ belgisini ham ko‘taradi. Shuning uchun bu yechim to‘g‘ridan-to‘g‘ri lug‘aviy moslikdan ko‘ra badiiy adekvatlikka yaqinlashadi: kontekst “xavfli uchrashuv”dan keyingi ruhiy zarbani talab qiladi.

3.6. Ko‘z yoshi va “o‘zini tuta olmaslik”: “couldn’t restrain... tears”

Zebining hissiy bosimi “couldn’t restrain pearl-like tears from beading down her cheeks” tarzida ifodalanadi [Fort, 2019: 123]. “Restrain” fe‘li o‘zbekchadagi tiya olmadi semasiga juda mos keladi, “pearl-like tears” esa tasviriy ekspressivlikni kuchaytiradi. Asliyatda ham ko‘z yoshi ruhiy holatning eng kuchli tashqi belgisi sifatida ishlatiladi [Cho‘lpon, 2018: 110 – 111]. Bu misol tarjimada ekspressiv obrazni saqlashning muhimligini ko‘rsatadi.

3.7. Nutq ritmidagi taranglik: “an anxious rapidity to her words”

Qurvonbibining holati “There was an anxious rapidity to her words” orqali beriladi [Fort, 2019: 115]. Bu yerda xavotir qahramonning gapirish ritmida aks etadi: tezlik — ichki shoshqinlik belgisi. Asliyatda ham shunga yaqin “nutqiy taranglik” konteksti mavjud [Cho'lpon, 2018: 107]. Demak, tarjimon ruhiy holatni nominatsiya emas, nutqiy ko'rsatkich orqali tiklashga erishadi.

3.8. “Ko'ngli tinchimadi” semasining tabiiy tiklanishi: “the mother's heart didn't calm”

“the mother's heart didn't calm” jumlasini ona ruhiyatidagi tinimsizlikni ochadi [Fort, 2019: 115]. O'zbekcha “ko'ngli tinchimadi” iborasining “heart” orqali berilishi ingliz tilida ham tabiiy metaforik model hisoblanadi. Bu — somatik metaforaning funksional-metaforik ekvivalenti.

3.9. Kutish tarangligi: “waited anxiously”

“waited anxiously” birikmasi “bezovta bo'lib kutdi” mazmunini aniq tiklaydi [Fort, 2019: 115]. Bu holatda ruhiy zo'riqish harakatning o'zidan emas, “kutish” psixologiyasidan paydo bo'ladi. Tarjimada ravish (“anxiously”) ichki fonni bevosita belgilab, o'quvchi qabulini tezlashtiradi.

3.10. Ijtimoiy baholash va uyat: “embarrassed himself”

“Abdusamat really embarrassed himself!” jumlasini kinoya aralash ijtimoiy baholashni beradi [Fort, 2019: 229; Cho'lpon, 2018: 225–227]. Bu yerda “embarrassed” o'zbekcha sharmanda bo'ldi / uyaltirdi semasiga yaqin. Muhim jihat: ruhiy holat bu misolda ichki kechinma emas, balki jamiyat oldidagi “uyat” va baholash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarjimada ruhiy holat birliklari faqat psixologik portret emas, ijtimoiy-axloqiy qatlamni ham ko'taradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ruhiy holat birliklari tarjimasida “to'liq lug'aviy moslik” doimo eng yaxshi yechim bo'lavermaydi. Aksincha, badiiy matnda ruhiy holat ko'pincha bilvosita ifodalanishi sababli, tarjimon yashirin semani topib, ingliz o'quvchisi uchun tabiiy bo'lgan ifoda vositalari bilan qayta quradi. Bu jarayon ijodiy yondashuvni talab qiladi [G'ofurov, 2012: 127–128].

Shuningdek, tarjimada ikki xavfli nuqta mavjud:

1. **Semantik yo'qotish** – milliy-psixologik rang yo'qolib, matn “neytrallashtirib” ketishi. Bu ayniqsa frazeologik obrazlar va somatik metaforalarda kuchli.
2. **Uslubiy sustlashuv** – ma'no qisman saqlangani bilan, ekspressiv fon pasayishi natijasida badiiy ta'sir kamayishi.

Reese tarjimasida ko'pincha ekspressiv kuchaytirish (“quivering”), psixologik modulyatsiya (“having a vision”, “pining away”) orqali ta'sir tiklanadi [Reese, 2020: 48; 141]. Fort tarjimasida esa somatik metaforalarni ingliz tilidagi tabiiy modellarga yaqinlashtirish (“heart sank”, “heart didn't calm”), shuningdek nutq ritmini ko'rsatish

(“anxious rapidity”) orqali ruhiy taranglik qayta yaratiladi [Fort, 2019: 115; 122–123]. Bu holatlar Nida va Taber ilgari surgan “eng yaqin tabiiy ekvivalent” tamoyilining amaliy tasdig'idir [Nida, 1969: 12]. Badiiy tarjima nazariyasida muhim xulosa shuki: ruhiy holat birliklarini tarjima qilish — faqat “nimani aytyapti?” degan savolga javob topish emas, balki “qanday ta'sir qilyapti?” degan savolga ham javob berishdir. Demak, ekvivalentlik “ma'no mosligi” bo'lsa, adekvatlik “ma'no + ta'sir + uslub” birligidir.

Maqolada o'zbek badiiy matnlarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarning ingliz tiliga tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlik masalalari nazariy hamda amaliy jihatdan yoritildi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

O'zbek badiiy matnida ruhiy holat ko'pincha bevosita nominatsiya bilan emas, bilvosita kontekst, tasviriy detal, somatik metafora va nutqiy-intanatsion belgilar orqali yaratiladi [Nazarova, 2016: 179–181]. Shuning uchun tarjimada faqat lug'aviy ekvivalentga tayangan yondashuv badiiy matnning psixologik “ruhi”ni sustlashtirishi mumkin [Bayniyozov, 2005: 82]. Reese va Fort tarjimalari misolida ko'rindiki, modulyatsiya, parafraz, ekspressiv kuchaytirish, kompensatsiya va funksional ekvivalent kabi strategiyalar ruhiy holat birliklarining badiiy ta'sirini tiklashda samarali. “Eng yaqin tabiiy ekvivalent” tamoyili ruhiy holat birliklarida ayniqsa dolzarb: tarjimon ma'no bilan birga uslubiy ta'sirni ham qayta yaratishi zarur [Nida, 1969: 12]. So'z darajasida to'liq moslikning yo'qligi tabiiy hodisa bo'lib, tarjimon uni kontekstual yechimlar orqali bartaraf etadi [Baker, 2018: 18].

Umuman, ruhiy holat birliklarini tarjima qilish jarayoni leksik moslik bilan cheklanmaydi; u semantik, stilistik, konnotativ va pragmatik qatlamlarning uyg'un tiklanishini talab qiladi. Badiiy tarjimaning muvaffaqiyat mezonini esa asliyatda hosil bo'lgan psixologik ta'sirning tarjimada ham imkon qadar yaqin estetik-emosional samara bilan qayta yaratilishidir.

Adabiyotlar:

1. Апресян, Y. D. Избранные труды. Том I. Лексическая семантика. Москва: Школа «Языки русской культуры», 1995.
2. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. London; New York: Routledge, 2018.
3. Bayniyozov, A. Tarjima nazariyasi (Ma'ruzalar matni). Toshkent: O'zMU, 2005.
4. Cho'lpon. Kecha va kunduz: roman. Toshkent: Sharq, 2018.
5. Fort, C. (trans.). Night and Day: A Novel (Cho'lpon). Brookline, MA: Academic Studies Press, 2019.

6. G'ofurov, I., Xolmonov, A., Mo'minov, A. Tarjima nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
7. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
8. Nazarova, I. P., Skhalyakhova, S. Sh., & Khachemizova, M. A. “ЯЗЫКОВЫЕ средства, выражающие психоэмоциональное состояние человека.” *Genesis: Historical Researches*, 2016, 8(2/2), 177–181.
9. Nida, E. A., & Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.
10. Qodiriy, A. Bygone Days: O'tkan Kunlar. Translator: Mark E. Reese. 2019.
11. Reese, M. E. (trans.). Bygone Days: O'tkan Kunlar. Nashville, TN: Muloqot Cultural Engagement Program, 2020.
12. Wierzbicka, A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. Oxford: Oxford University Press, 1992.
13. Gavharoy Ruzimovna Komilova. (2022). METHODS OF ANALYSIS OF VALUES REFLECTED IN PROVERBS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 34-43. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05>
13. Hakimova M. Leveling lexical abstraction in Uzbek Language. *Anglisticum Journal*. May, 2019. -P. 36-42.
14. Muhammadiyeva D. “BOBURNOMA” NING TURKCHA TARJIMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR. Vol. 1 No. 1 (2025): FILOLOGIK KOMPATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI.
15. Shamsiyeva M. БИЛИНГВИЗМНИНГ БОЛА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖИГА ТАЪСИРИ. VIII. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI ARAŞTIRMALARI SEMPOZYUMU (2 – 5 Haziran 2021, Niğde)
16. UI Abdikarimovna [«KO'NGIL» LEKSEMASI VA UNING «TAFAKKUR» SEMEMASIDAN SHAKLLANGAN FRAZEMALAR TAHLILI \(«Xamsa» asari misolida\)](#). Philological research: language, literature, education, 2025
17. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1430-1434.
18. B Abdushukurov GENEALOGIC ANALYSIS OF THE VOCABULARY OF «QISASI RABGHUZI». - Theoretical & Applied Science, 2020
19. Muhammadiyeva, D. TARJIMA MATNLARDA FRAZEMALARNING PROYEKSIYASI PROJECTION OF PHRASES IN TRANSLATED TEXTS. O 'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI.
20. Shamsieva Manzura Bababekovna. (2025). COGNIOTYPES OF LANDSCAPES IN THE EPIC “LISON UT-TAYR” BY ALISHER NAVOI. *International*